

QO‘QON XONLIGINING MADANIY HAYOTI HAQIDA QISQACHA MULOHAZALAR

Galiyev Salavat Vildanovich

Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti

galiyevsalavat@gmail.com

Odilova Hayitxon Habibullo qizi

Guliston davlat universiteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Qo‘qon xonligining XVIII–XIX asrlardagi madaniy hayoti yoritilib, adabiyot, ma‘rifat va ilm-fan taraqqiyoti hamda Qo‘qon adabiy muhitining yetuk namoyandalari faoliyati tahlil qilinadi. Xususan, Amir Umarxon davrida saroy adabiy muhitining jonlanishi, “Majma ush-shuaro” kabi majlislarda ijodkorlarning jamlanishi va badiiy merosning shakllanish jarayonlari ko‘rsatib beriladi. Maqolada Nodira, Uvaysiy, Dilshod Barno, Gulxaniy, Zavqiy, Maxmur, Muqimiy singari ijodkorlar ijodidagi insonparvarlik, vatanparvarlik va ma‘rifatparvarlik g‘oyalari umumlashtiriladi. Shuningdek, xonlikdagi madrasa va maktablar faoliyati, diniy hamda dunyoviy fanlarning o‘qitilishi, me‘morchilik yodgorliklari (jumladan, Xudoyorxon o‘rdasi, Jome masjidi) va hunarmandchilik tarmoqlarining (kulolchilik, zargarlik, ipakchilik, atlas/adras to‘qish) rivoji haqida xulosalar beriladi. Umuman olganda, Qo‘qon xonligi madaniy merosi o‘zbek xalqining tarixiy xotirasi va ma‘naviy taraqqiyotida muhim o‘rin tutishi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon xonligi; madaniy hayot; adabiy muhit; ma‘rifatparvarlik; madrasa; me‘morchilik; hunarmandchilik; Nodira.

Аннотация: В статье рассматривается культурная жизнь Кокандского ханства XVIII–XIX вв., раскрываются особенности развития литературы, просвещения и науки, а также роль ведущих представителей кокандской литературной среды. Отдельное внимание уделяется периоду правления Амир Умархана, когда при дворе активизировались литературные собрания (в том числе “Маджма уш-шуаро”), способствовавшие формированию устойчивой творческой традиции и концентрации поэтов, историков и ученых. Обобщаются идейно-тематические доминанты творчества Нодиры, Увайси, Дильшод Барно, а также Гульхани, Завки, Махмура, Муками и других авторов, в которых значительное место занимают гуманизм, патриотизм и просветительские мотивы. В аннотации отражены вопросы функционирования медресе и школ, преподавания религиозных и светских дисциплин, а также анализируются элементы архитектурного наследия (в частности, дворец Худоярхана и Джуме-мечеть) и развитие ремесленных отраслей — керамики (Риштан), ювелирного дела, ткачества атласа/адраса и шелководства (Маргилан). Делается вывод о высокой значимости культурного наследия Кокандского ханства для исторической памяти и духовной культуры узбекского народа.

Ключевые слова: Кокандское ханство; культурная жизнь; литературная среда; просветительство; медресе; архитектура; ремесла; Нодира.

Abstract: *This article explores the cultural life of the Kokand Khanate in the eighteenth and nineteenth centuries, focusing on the development of literature, enlightenment, and scholarly activity, as well as the leading figures of the Kokand literary milieu. Particular emphasis is placed on the reign of Amir Umar Khan, a period characterized by intensified court patronage and the consolidation of poets and scholars through literary gatherings such as “Majma ush-shuaro.” The paper synthesizes key thematic and ideological motifs found in the works of Nodira, Uvaysiy, Dilshod Barno, and other prominent authors (including Gulkhaniy, Zavqiy, Maxmur, and Muqimiy), highlighting humanistic values, patriotic sentiment, and enlightenment ideals. In addition, the study outlines the role of educational institutions—madrasas and schools—in sustaining intellectual life and in teaching both religious and secular disciplines. The article also addresses material culture by discussing major architectural monuments (notably the Khudoyor Khan Palace and the Jome Mosque) and the growth of crafts and urban production, including ceramics (Rishtan), metalwork and jewelry, silk production, and the weaving of atlas and adras textiles (Margilan). Overall, the article argues that the cultural heritage of the Kokand Khanate remains a significant component of Uzbekistan’s historical memory and spiritual culture, shaping the foundations of modern Uzbek literary and cultural traditions.*

Keywords: *Kokand Khanate; cultural life; literary milieu; enlightenment; madrasas; architecture; crafts; Nodira.*

Qo‘qon xonligi-O‘zbek xonliklaridan biri.Qo‘qon xonligi O‘rta Osiyoda XVIII asr boshlarida shakllangan eng yirik davlatlardan biri bo‘lib, uning poytaxti Qo‘qon shahri edi.O‘zbeklarning minglar urug‘idan bo‘lgan Shoxruhbiy 1709-yilda asos solgan. Bu davlat tarkibiga dastlab Qo‘qon, Namangan, Marg‘ilon, Isfara va uning atrofidagi qishloqlar kirgan.Qo‘qon, Marg‘ilon, Andijon, Namangan, Rishton, va Beshariq kabi shaharlarda siyosiy barqarorlik bilan bir qatorda ma‘naviy- madaniy yuksalish kuzatildi. Qo‘qon xonlari-Norbo‘tabiy, Abdurahmonbiy, Amir Umarxon, Muhammadalixon, Xudoyorxon kabi hukmdorlar san‘at va adabiyot ahliga homiylik bilan qo‘llab-quvvatlaganlar.

Ayniqsa Amir Umarxon davrida (1810-1822) madaniy hayot o‘z cho‘qqisiga chiqqan. Shu davrda Qo‘qon „O‘rta Osiyoning ma‘naviy markazi” sifatida tanilgan. Qo‘qon xonligida adabiyotning eng yuksak davri Umarxon va uning rafiqasi Nodira davriga to‘g‘ri keladi. Saroyda adabiy majlislar -,„Majma ush- shuaro“ faoliyat yuritib,bu jamiyatda o‘nlab shoir va olimlar ijod qilishgan. Ularning sayi-harakatlari tufayli saroyga iste’dodli shoirlar, adabiyotshunoslar, tarixchilar to‘plangan edilar. Amiriy Bokixon to‘ra, Gulxaniy, Zavqiy, Maxmur, Mushrif, Nizomiy, Nodir kabilar, adabiy muhitning gultojilari bo‘lmish Dilshod, Nodira, Uvaysiyar o‘z davrida samarali ijod qilganlar. Qo‘qon adabiy muhitining yirik vakili Amir Umarxondir. U saroy shoirlarining

yetakchisi bo'lib, o'z she'rlarida adolat va mehr-oqibat g'oyalarini ilgari surgan. Uning o'zbek va fors tillarida yozgan g'azallar devoni 1881-yilda Istanbulda, 1905-yilda Toshkentda chop etilgan. Uning rafiqasi Nodira (1792-1842) „Komila“, „Maknuna“ taxallauslari bilan ijod qilgan. U asosan ayol sha'ni va vatanparvarlik mavzularida yozgan. Otasi Raxmonqulibiy Andijon hokimi bo'lib Qo'qon xoni Olimxonning tog'asi edi. Umarxon Marg'ilonga hokim etib tayinlanganidan keyin Nodiraga uylanadi. Nodira shu xonadonda she'rlar mashq qilgan. Shoira Uvaysiy bilan tanishgach, uni yosh bolalar va kanizaklarini o'qitish uchun muallimlikka taklif qiladi.

Jahon otin Uvaysiy (1780-1845) ayol shoirlar orasida eng faol ijodkorlardan bo'lib, ma'rifatparvarlik g'oyalarini targ'ib etgan. Ma'rifatparvar shoir va tarixchi olim Dilshod Barno „Tarixi muxassara“ (Kamol tarixi), „Sabot ul basharmaa tarixi muxojiron“ (Inson matonati va muxojirlar tarixi) kabi asarlar yozib qoldirgan. Muqumiy (1850-1903) Qo'qon adabiy an'analarini davom ettirib, realistik adabiyot asoschilaridan biri bo'lgan. Qo'qon shoirlarining asarlarida milliy o'zlikni anglash, diniy e'tiqod, insoniy qadriyatlar, mexnat, sadoqat, muhabbat kabi g'oyalar ilgari surilgan. Ularning she'rlari bugungi o'zbek adabiyotining shakllanishida muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi. Qo'qon xonligida ilm-fan rivoji madrasalar faoliyati bilan chambarchas bog'liq edi. XIX asrga kelib xonlik hududida 40 ta madrasa, 120 ta maktab faoliyat ko'rsatgan. Mashhur madrasalardan Jome madrasasi, Nodirabegim madrasasi, Muhammadalixon madrasalari bo'lgan. Bu madrasalarda Qur'on, hadis, fiqh, mantiq, falakiyot, tibbiyot, tarix kabi fanlar o'qotilgan.

Darslar arab, fors va eski o'zbek tillarida olib borilgan. Qo'qon xonligi me'morchiligi o'zining milliy uslubi bilan ajralib turadi. XIX asrda Qo'qon, Marg'ilon, Andijon va Rishton shaharlarida masjidlar, madrasalar, saroylar va maqbaralar qurilgan. Me'moriy yodgorliklardan Xudoyorxon o'rdasi 114 ta xonali saroy bo'lib, ichki bezaklarida koshin, yog'och o'ymakorligi va ganchkorlikning ajoyib namunalari mujassam. Xudoyorxon o'rdasidagi kutubxonada 2000 dan ortiq qo'lyozma asarlar saqlangan. Jome masjidi Umarxon davrida qurilgan bo'lib u diniy va ijtimoiy hayot markazi bo'lgan. Qo'qon xonligida kulolchilik, misgarlik, zargarlik, atlas to'qish, kashtachilik keng rivoj topgan. Ayniqsa Rishton kulolchilik maktabi o'zining moviy va yashil rangli sirli buyumlari bilan mashhurdir. Bundan tashqari Marg'ilon ipakchilik markaziga aylangan. Bu yerda tayyorlangan atlas va adraslar O'ta Osiyo bozorlariga chiqarilgan.

Qo'qon xonligi madaniy hayoti XVIII- XIX asrlar davomida O'rta Osiyo tarixida ma'naviy yuksalish davri sifatida e'tirof etiladi. Bu davrda adabiyotda insonparvarlik va ma'rifatparvarlik g'oyalari ilgari surilgan. Ilm- fanda diniy va dunyoviy bilimlar uyg'unlashadi. Me'morchilikda esa milliy an'analar va estetik uyg'unlik o'z ifodasini topdi. Qo'qon xonligi madaniy merosi bugungi kunda ham o'zbek xalqining ma'naviy hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Nodira, Uvaysiy, Dilshod, Muqimiy kabi ijodkorlarning asarlari o'zbek adabiyotining oltin sahifalarini tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мулла Олим Махмудхўжа. Тарихи Туркистон. – Тошкент: Фан, 1969. – 256 б.
2. Ибрат, Исоқхон. Фарғона тарихи. – Тошкент: Мерос, 1991. – 312 б.
3. Бобобеков, Ҳ. Н. Қўқон тарихи. – Тошкент: Фан, 1996. – 240 б.
4. Воҳидов, Р. Нодира ва Қўқон адабий муҳити. – Тошкент: Фан, 1982. – 184 б.
5. Аҳмедов, Б. А. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991. – 288 б.
6. Зиёев, Ҳ. З. Ўзбекистон мустамлака ва зулм даврида. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 368 б.
7. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 5-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2003. – 704 б.
8. Муками. Асарлар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – 320 б.
9. Нодира. Девон. – Тошкент: Фан, 1968. – 180 б.
10. Увайсий. Девон. – Тошкент: Фан, 1963. – 156 б.